



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

KONSTRUKTIV TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNING IJODKORLIK VA LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0007-1964-8471

Annotatsiya

Ushbu maqolada konstruktiv ta'lim yondashuvi asosida talabalarning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda konstruktiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning ijodiy fikrlash va yetakchilik sifatlarini shakllantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Metodik tizimning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari hamda natijaviy komponentlari izchil tahlil qilingan. Maqolada talabalarning faol bilish jarayoniga jalb etilishi, muammoli vaziyatlar asosida mustaqil qaror qabul qilishi va jamoada samarali liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: konstruktiv ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, ijodkorlik kompetensiyasi, liderlik kompetensiyasi, metodik tizim, talaba shaxsi.

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ И ЛИДЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОНСТРУКТИВИСТСКОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ

Курбонова Муштарийбегим Бахтиёржон кизи
Ферганский государственный университет, независимый исследователь
ORCID: 0009-0007-1964-8471

Аннотация

В статье научно обоснована методическая система развития креативной и лидерской компетентности студентов на основе конструктивистского подхода в обучении. Раскрывается роль конструктивистского подхода в образовательном процессе и его возможности в формировании творческого мышления и лидерских качеств обучающихся. Проанализированы цель, задачи, содержание, формы и методы, а также результативные компоненты методической системы. Особое внимание уделено активному включению студентов в познавательную деятельность, формированию навыков принятия самостоятельных решений и развитию эффективных лидерских умений в коллективной деятельности.

Ключевые слова: конструктивистский подход, компетентностный подход, креативная компетентность, лидерская компетентность, методическая система, студент.

A METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY AND LEADERSHIP COMPETENCIES BASED ON A CONSTRUCTIVIST LEARNING APPROACH

Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi
Fergana State University, Independent Researcher
ORCID: 0009-0007-1964-8471

Abstract

This article provides a scientific justification of a methodological system for developing students' creativity and leadership competencies based on a constructivist educational approach. The role of constructivism in the learning process and its potential for fostering creative thinking and leadership qualities are examined. The study analyzes the goals, objectives, content, forms, methods, and outcome components of the methodological system. Particular emphasis is placed on engaging students in active cognitive activities, developing independent decision-making skills, and enhancing effective leadership abilities within collaborative learning environments.

Keywords: constructivist education, competency-based approach, creativity competence, leadership competence, methodological system, student development.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri talabalarda faqatgina nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilangina cheklanmay, balki ularning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishdan iboratdir. Globallashuv jarayonlari va innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining talablaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mustaqil fikrlash, nostandart muammolarni kreativ yondashuv asosida hal etish, shuningdek, jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Mazkur jarayonda konstruktiv ta'lim yondashuvi alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv talabani shaxsiy tajribasi, individual bilimlari va faol bilish faoliyatiga tayangan holda yangi bilimlarni ongli ravishda qurishga imkon yaratadi. Konstruktiv ta'lim konsepsiyasi ta'lim oluvchini passiv bilim oluvchi emas, balki o'z bilimlarini mustaqil shakllantiruvchi faol subyekt sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli konstruktiv yondashuv asosida talabalarining ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy pedagogika va ta'lim nazariyasida konstruktiv ta'lim yondashuvi kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining muhim metodologik asosi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvning ilmiy-nazariy ildizlari talabani bilish faoliyatini faollashtirish, bilimlarni tayyor holatda uzatishdan voz kechish hamda ularni shaxsiy tajriba va ijtimoiy hamkorlik asosida ongli ravishda shakllantirish g'oyalariga tayanadi. Konstruktiv yondashuv ta'lim jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari asosida tashkil etishni taqozo etib, talabani intellektual, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Konstruktiv yondashuvning nazariy asoslari D.Jon Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim konsepsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Dewey ta'limni faol faoliyat, muammo yechish va refleksiya jarayoni sifatida talqin qilib, bilim faqat amaliy tajriba bilan uyg'unlashgandagina samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar talabalarda ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muammoli fikrlash, tahlil qilish va yangicha qarorlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Konstruktiv ta'lim yondashuvining ijtimoiy jihatlarini P.Freire pedagogikasida ham muhim o'rin egallaydi. Olim ta'limni shaxsni ijtimoiy faollikka undovchi va yetakchilik salohiyatini ochib beruvchi jarayon sifatida izohlaydi. Freire ta'lim jarayonida dialog, hamkorlik va tanqidiy fikrlashning ustuvorligini asoslab, talabani o'z pozitsiyasini mustaqil ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish liderlik kompetensiyasining muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Konstruktiv yondashuv doirasida ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi K.Robinson tomonidan ham keng tahlil qilingan. Uning fikricha, an'anaviy ta'lim tizimi

ko‘pincha talabaning ijodiy salohiyatini cheklaydi, konstruktiv va moslashuvchan ta‘lim muhiti esa ijodkorlikni tabiiy ravishda rivojlantirishga imkon yaratadi. Robinson ijodkorlikni bilim, tasavvur va tashabbus uyg‘unligi sifatida talqin qilib, uni rivojlantirish uchun ochiq muhit va mustaqil izlanishga asoslangan metodlar zarurligini ta‘kidlaydi.

Liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasida J.Kouzes va B.Posnerning transformatsion liderlik modeli alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, samarali liderlik tashabbuskorlik, mas‘uliyat va jamoani ilhomlantira olish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Konstruktiv ta‘lim yondashuvi asosida tashkil etilgan jamoaviy va loyihaviy faoliyatlar aynan ushbu sifatlarning rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda konstruktiv yondashuvning ahamiyati B.Blumning kognitiv maqsadlar taksonomiyasi bilan ham uyg‘unlashadi. Yuqori darajadagi kognitiv faoliyat tahlil, sintez va baholash konstruktiv metodlar orqali samarali shakllanadi. Bu esa talabalarning nafaqat bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning ijodiy va liderlik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimida olib borilgan empirik tadqiqotlar (T.Wenger, D.Jonassen va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, konstruktiv ta‘lim muhiti talabalarning reflektiv fikrlashini kuchaytirib, ularni bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlaydi. Ushbu jarayon ijtimoiy hamkorlik, bilimlar almashinuvi va o‘zaro o‘rganish orqali liderlik ko‘nikmalarining shakllanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, konstruktiv ta‘lim yondashuvi talabalarning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning mustahkam nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuv bilimlarni faol o‘zlashtirish, ijtimoiy muloqot, hamkorlik va refleksiya orqali shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu bois, konstruktiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tizim oliy ta‘lim amaliyotida talabalarni raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va yetakchilik salohiyatiga ega mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konstruktiv ta‘lim yondashuvi zamonaviy pedagogik konsepsiyalar tizimida muhim o‘rin tutib, talabaning avval egallagan bilimlari, shaxsiy tajribasi va individual bilish ehtiyojlariga tayangan holda yangi bilimlarni mustaqil ravishda shakllantirish jarayonini tashkil etishga yo‘naltiriladi. Ushbu yondashuvda bilimlar tashqi manbadan tayyor holatda uzatilmaydi, balki talabaning faol bilish faoliyati jarayonida izlanish, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish orqali ongli ravishda quriladi. Natijada ta‘lim jarayoni reproduktiv emas, balki produktiv va ijodiy xarakter kasb etadi.

Konstruktiv ta‘lim yondashuvi doirasida o‘qituvchining pedagogik roli tubdan o‘zgaradi. An‘anaviy bilim beruvchi va nazoratchi funksiyasi o‘rnini ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi hamda talabalarning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi fasilitatorlik faoliyati egallaydi. Bunday sharoitda talaba ta‘lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylanib, bilimlarni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki muammoli vaziyatlar, muloqot, refleksiya va tajriba asosida mustaqil ravishda egallaydi. Bu esa bilimlarning barqarorligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Konstruktiv ta‘lim yondashuvi asosida talabalarning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ta‘limning mazmuni bilangina emas, balki ushbu mazmunni amalga oshirishda qo‘llaniladigan metodlar tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Konstruktiv paradigma doirasida tanlanadigan metodlar talabaning faol bilish jarayoniga jalb etilishini, mustaqil fikrlashini, ijtimoiy hamkorlikda ishtirok etishini va reflektiv tahlil asosida o‘z faoliyatini takomillashtirishini ta‘minlashi lozim. Shu sababli mazkur tadqiqotda talabalarning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, konstruktiv yondashuv mohiyatiga mos bo‘lgan muammoli-ta‘lim, loyihaviy faoliyat,

hamkorlikda o'qitish va reflektiv-ta'lim metodlari metodik tizimning asosiy funksional vositalari sifatida tanlandi va ilmiy jihatdan asoslandi.

1. Muammoli-ta'lim metodi (Problem-Based Learning). Muammoli-ta'lim metodi konstruktiv ta'lim yondashuvining yetakchi metodlaridan biri bo'lib, talabalarning bilimlarni reproduktiv tarzda emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va hal etish jarayonida mustaqil ravishda egallashiga yo'naltirilgan. Ushbu metod asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi tayyor bilimlarni taqdim etuvchi emas, balki muammoli vaziyatni yaratib beruvchi va talabalarning bilish faoliyatini yo'naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyatlar talabalarni muammoni anglash, sabab-oqibatlarini aniqlash, muqobil yechimlar ishlab chiqish va ularni dalillar asosida asoslashga undaydi. Natijada talabalarda ijodkorlik kompetensiyasi shakllanib, nostandart fikrlash, kreativ yondashuv va yangicha qarorlar ishlab chiqish qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, muammolarni jamoaviy muhokama qilish jarayonida talabalar o'z fikrini himoya qilish, boshqalarni ishonitirish, tashabbus ko'rsatish va muhokama jarayonini boshqarish orqali liderlik kompetensiyalarini ham izchil rivojlantiradilar.

2. Loyihaviy faoliyat metodi (Project-Based Learning). Loyihaviy faoliyat metodi konstruktiv ta'lim yondashuvining amaliy yo'naltirilganligini ifodalovchi samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod talabalarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llashiga imkon yaratib, ularni muayyan muammo yoki mavzu doirasida mustaqil loyiha ishlab chiqishga yo'naltiradi. Loyihaviy faoliyat jarayonida talabalar rejalashtirish, axborot izlash, tahlil qilish, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va natijalarni taqdim etish bosqichlarini izchil amalga oshiradilar. Mazkur metod ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishda g'oya yaratish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va muammolarga kreativ yondashish orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, loyihaviy ishlar ko'pincha jamoaviy shaklda amalga oshirilgani sababli, talabalar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, jamoani muvofiqlashtirish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va yetakchilik qilish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu jarayon liderlik kompetensiyalarining shakllanishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

3. Hamkorlikda o'qitish metodi (Collaborative Learning). Hamkorlikda o'qitish metodi konstruktiv ta'lim yondashuvining sotsiokonstruktiv mohiyatini aks ettirib, ta'lim jarayonini talabalar o'rtasidagi faol muloqot va o'zaro hamkorlik asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu metodda bilimlar individual emas, balki jamoaviy muhokama, tajriba almashish va birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllantiriladi. Hamkorlikda o'qitish jarayoni talabalarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni jamoa doirasida muvofiqlashtirish, nizolarni hal etish, qarorlar qabul qilish va yetakchilik qilishga tayyorlaydi. Natijada talabalarda liderlik kompetensiyalari rivojlanib, boshqalarni rag'batlantirish va umumiy maqsad sari yo'naltirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, guruhda ishlash jarayoni turli g'oyalar almashinuvi orqali ijodkorlik kompetensiyasining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Reflektiv-ta'lim metodi (Reflective Learning). Reflektiv-ta'lim metodi konstruktiv yondashuvning muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabalarning o'z bilish faoliyati va qarorlarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu metod orqali talabalar o'z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, kelgusida yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Refleksiya jarayoni ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishda yangi g'oyalarni qayta ko'rib chiqish, xatolardan konstruktiv xulosa chiqarish va muqobil yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, reflektiv faoliyat talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, mas'uliyatli va ongli qarorlar qabul qilishga tayyorlikni oshiradi. Bu esa liderlik kompetensiyalarining barqaror va ongli shakllanishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, muammoli-ta'lim, loyihaviy faoliyat, hamkorlikda o'qitish va reflektiv-ta'lim metodlari konstruktiv ta'lim yondashuvi asosida talabalarning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik

tizimda o'zaro uyg'unlikda qo'llanilganda yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu metodlar talabaning bilish faolligini oshirib, uni mustaqil fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega hamda jamoada yetakchilik qila oladigan raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatib, ularda bir qator muhim sifat va kompetensiyalarning shakllanishini ta'minlaydi. Jumladan, mazkur yondashuv talabalarda kreativ va tanqidiy tafakkurni rivojlantirib, mavjud muammolarga nostandart va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, mustaqil izlanishga asoslangan faoliyat tashabbuskorlik, yangilikka intilish va innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bundan tashqari, konstruktiv ta'lim muammoli vaziyatlar orqali talabalarning mas'uliyatli va ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jamoaviy faoliyatga asoslangan topshiriqlar esa muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash, o'z fikrini asoslab berish va boshqalarni ortidan ergashtirish kabi liderlik qobiliyatlarining namoyon bo'lishi va takomillashuviga imkon yaratadi. Natijada talaba nafaqat bilimli mutaxassis, balki ijtimoiy faol va yetakchilik salohiyatiga ega shaxs sifatida shakllanadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tizim konstruktiv yondashuvning nazariy asoslariga tayangan holda o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir nechta tarkibiy komponentlardan tashkil topgan. Ushbu tizimning maqsadli komponenti talabalarda ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik maqsadlar majmuini o'z ichiga oladi. Mazkur komponent ta'lim jarayonining strategik yo'nalishini belgilab beradi.

Mazmuniy komponent ta'lim jarayonining mazmunini belgilab, muammoli vaziyatlar, loyihaviy va integrativ topshiriqlar, shuningdek, fanlararo bog'liqlikka asoslangan bilimlar tizimini qamrab oladi. Ushbu komponent talabalarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashiga va ularni amaliy faoliyatda qo'llashiga imkon yaratadi.

Faoliyat komponenti esa interaktiv metodlar, jamoaviy ish shakllari, reflektiv mashg'ulotlar hamda muhokamaga asoslangan ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olib, talabalarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu komponent doirasida ta'lim jarayoni hamkorlik, muloqot va o'zaro tajriba almashish asosida tashkil etiladi.

Metodik tizimning natijaviy komponenti talabalarda shakllangan ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarining darajasi hamda sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va baholashni nazarda tutadi. Ushbu komponent metodik tizim samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, konstruktiv ta'lim yondashuvi asosida ishlab chiqilgan metodik tizim talabalarning ijodkorlik va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Mazkur tizim talaba shaxsining intellektual, ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda jamoaviy faoliyatda yetakchilik qilish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan metodik yondashuv zamonaviy oliy ta'limning kompetensiyaviy va innovatsion talablariga to'liq mos kelib, ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 2001. 182 p. P. 89–112.
2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p. P. 84–91.
3. Bruner, J. S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. 92 p. P. 72–85.
4. Torrance, E. P. Creativity in the Classroom. Washington, DC: National Education Association, 1977. 178 p. P. 43–67.

5. Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986. 617 p. P. 390–415.
6. Marzano, R. J. Designing & Teaching Learning Goals and Objectives. Bloomington: Marzano Research Laboratory, 2009. 120 p. P. 54–69.
7. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 392 p. P. 162–180.
8. Fosnot, C. T. Constructivism: Theory, Perspectives, and Practice. New York: Teachers College Press, 2013. 256 p. P. 33–58.